

## ERKIN VOHIDOV LIRIKASIDA EPIK TASVIR QIRRALARI

## Sag`dullayeva Nigora

## Jizzax DPI o`zbek tili va

**adabiyoti yo`nalishi magistranti**

Adabiyotshunoslikda lirik kechinmani biror bir voqeaning ixcham tasviri asosida ifodalovchi she'rlar voqeabandlik, epiklik qirralarini kasb etadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, voqeaband lirikada voqeani tasvirlash asosiy maqsad emas, balki vosita, lirik kechinmani ifodalash vositasidir. Voqeaband lirikada voqea to'laqonli tasvirlanmaydi, eng muhim bo'lgan joylari kiritiladi, asosiy detallar olinadi, kulminatsion nuqtalarga urg'u beriladi. Epik tasvir ko'lamini bir tomondan, o'sha voqea ta'sirida yuzaga kelgan his-tuyg'uni ifodalash, ikkinchi tomondan, o'quvchining uni tasavvur qila olishi, lirik kechinmaga turtki bo'lgan asosni his qilishi uchun yetarli bo'lishi shart.

Erkin Vohidov she'riyatida xuddi mana shu ruhda yozilgan she'rlar talayginaki, ana shu epik tasvirga ega she'rlaridan biri "Sadoqat" deb nomlanadi:

Keksa qarag'ayning  
Ildizin ochib,  
Tortdilar qo'sh arqon solib belidan.  
Lekin u tuproqqa panjasin sanchib,  
Sira qo'zg'almasdi  
Ungan yeridan...  
Nihoyat, gurs etib yerga quladi,  
Butab, so'ng ko'tarib ketdilar,  
biroq -  
U o'z panjasida olib jo'nadi  
Yashagan yeridan  
Bir siqim tuproq (158-b.).<sup>1</sup>

Shoir sadoqat, vafo, Vatanga muhabbat tuyg'ularini ulug'lash uchun aniq bir voqeani oladi, lekin uni izchil tasvirlamaydi, uning eng muhim nuqtasini jonlantirish bilan cheklanadi. Shoir tanlagan g'oya, ko'zlagan maqsadi uchun shuning o'zi kifoya.

<sup>1</sup> E.Vohidov.Muhabbatnoma. T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986, 158-b. (Misollar sahifa ichida ko'rsatiladi).

Keksa qarag'ayni o'zi ungan, o'sgan joyidan ajratishning o'zi bo'lmadi, uning beliga qo'sh arqon solib tortdilar, u gurs etib yerga quladi. Uni shundayligicha olib ketishning iloji yo'q, uni butab, kesib ,ming bo'lakka bo'lib olib ketdilar. Qarag'ayning panjasida o'zi yashagan yerining bir siqim tuprog'i bor edi.

Ko'rganimizdek, shoir o'z g'oyasini ochish uchun eng muhim tasvirlarni, detallarnigina oladi.

Shoirning "Chumoli" she'ri ham voqeaband lirikaning yorqin misoli:

G'ayrat kamarini beliga bog'lab,  
O'zidan kattaroq cho'pni ortmoqlab  
Manzilga tez yetmoq yolg'iz xayoli -  
So'qmoq yo'ldan borar  
Chumoli.  
Atrofga boqmas, ishlar uzun kun,  
Ko'pning xirmoniga qo'shmoq uchun  
don...

Yo'q  
Odam ajdodi bo'lmagan maymun,  
Chumolidan tarqalgan inson (112-bet).

Shoir insonning mehnatkashligini, tinib-tinchimasligini, bolam-chaqam deb chekadigan zahmatini ulug'lash uchun mehnatkashlik ramzi bo'lgan chumolini kuzatadi. She'rdagi eng muhim holatlar: o'zidan katta bo'lgan cho'pni ortmoqlagan chumoli, atrofga boqmasdan, ko'pchilik xirmonini yuksaltirish uchun jon kuydirayotgan bu jajji jonzotning xatti-harakati kitobxon ko'z o'ngida yaqqol gavdalanadi.

Voqeaband lirik she'rni she'riy yo'lda yozilgan epik asar bilan farqlash lozim. Masalan, Erkin Vohidovning "Insoniyat tarixi" she'ri voqeaband she'r emas, balki she'riy yo'lda yozilgan kichik hikoyat, mohiyatan epik xarakterdagi asardir.

Sharq afsonasi asosida yozilgan bu she'rda butun umrini kayf-u safoda o'tkazib, davr-u davron surgan Qobiliston podshohi yoshi bir joyga yetganda ulamo ahlini chaqirib:

Debdi: "Olamga kelib  
Olam neder bilmadim,  
Odam bo'lib yashadim,  
Odam neder bilmadim.  
Qirq yil podsholik qilib

Umrini o'tdi g'aflatda  
Qolganini ilmga  
Sarf qilurman albatta,  
Shuning uchun farmonim  
Barcha bilimni to'plab,  
Insoniyat tarixini  
Jam qilib kitob yozing  
Yozganda ham batafsil  
va lekin shitob yozing" (159-bet).

Podshoning farmoni bilan qirq faslda qirq olim insoniyat tarixini qirq tuya  
kitob qilib saroyga, podsho huzuriga olib kelganlarida podsho debdi:

...Ko'p yozibsiz bunchalar.  
Insoniyat tarixi  
Uzunmidi shunchalar?  
Kimga darkor buncha gap,  
Sanjob qiling, ulamo,  
Ko'pi bilan bir tuya  
Kitob qiling, ulamo (160-bet).

Shundan keyin olimlar qirq kitobni qirqta kitobga qisqartiribdilar va podsho  
huzuriga olib kelibdilar. Shunda podsho:

Barchasini o'qishga  
Umrini yetmaydi ammo  
Shuning uchun azizlar,  
Tafsilotni kam qiling,  
Bor ilmni yig'ing-u  
Bir kitobga jam qiling, - debdi (161-bet).

Qirq olim, qirq fasl o' tirib, qirq kitob mazmunini bir kitobga jam qilib  
kelishganda, podsho o'lim to'shagida edi

"Mazmunin aytib bering  
Ikki og'iz so'z bilan.  
Eshitib o'lar bo'lsam  
Qolmas edi armonim".  
Olimlar donishmandi  
Shunda debdi: hoqonim,  
Odamlar tug'iladi,  
G'am chekadi, o'ladi.  
Insoniyat tarixini  
Mazmuni shu bo'ladi (168-bet).

Shoir Sharqning bu afsonasida olimlar donishmandining fikrini  
quvvatlamaydi. She'rning oxirida ijodkor hayot haqiqati, ko'p mingyilliklarda  
isbotlangan bir haqiqatni shunday keltiradi:

Odamzod tarixida  
Ortga qaytish bo'lmaydi.  
Odamlar tug'iladi,  
Kurashadi, o'lmaydi.  
Har bir inson yo'lchidir  
Porloq asr yo'lida.  
Haqiqat mash'ali bor  
Odamzodning qo'lida (162-bet).

Erkin Vohidov afsonadagi pessimistik yakunni butunlay boshqa tarafga burib yuboradi: inson tug'iladi, yahsaydi, mehnat qiladi. Ko'pchilik manfaati yo'lida qilingan mehnat bezavoldir. Insonning o'limidan so'ng u qoldirgan yaxshi nom yashaydi, degan haqiqatni shoir shu she'rida epik xarakterda bayon qilib bergan.

Erkin Vohidov ijodida dostonlarning salmoqli o'rin tutishi bejiz emas. Shoir lirikasida epik tasvir qirralari uning dostonlaridan tashqari voqeaband she'rlarida, shuningdek, she'riy yo'lda yozilgan hikoyatlarda ko'rinadi. Bunday xarakterdagi asarlar shoirga doston yozish uchun o'ziga xos ijodiy tajriba rolini o'ynaydi.